



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## **Sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishda qayta sug'urtaning ta'sirini baholash**

***Sohibjamol Abirkulova***

*Katta o'qituvchi, Iqtisodiyot va boshqaruv kafedrası, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*

### **Annotatsiya:**

*Hozirgi kunda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda sug'urta tizimining roli tobora ortib bormoqda. Sug'urta kompaniyalari faoliyatining samaradorligi ularning moliyaviy barqarorligi, risklarni boshqarish salohiyati hamda mavjud xavf-xatarlarni kamaytirish strategiyalariga bevosita bog'liq. Ayniqsa, qayta sug'urta instituti sug'urta kompaniyalari uchun moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, yirik to'lovlar riskini kamaytirish va xizmat sifati barqarorligini saqlab qolishda muhim vosita hisoblanadi.*

### **Kalit so'zlar:**

*Qayta sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari va turlari.*

### **Kirish.**

Hozirgi kunda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda sug'urta tizimining roli tobora ortib bormoqda. Sug'urta kompaniyalari faoliyatining samaradorligi ularning moliyaviy barqarorligi, risklarni boshqarish salohiyati hamda mavjud xavf-xatarlarni kamaytirish strategiyalariga bevosita bog'liq. Ayniqsa, qayta sug'urta instituti sug'urta kompaniyalari uchun moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, yirik to'lovlar riskini kamaytirish va xizmat sifati barqarorligini saqlab qolishda muhim vosita hisoblanadi.

Mazkur ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi — sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishda qayta sug'urtaning ta'sirini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Bunda, qayta sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari va turlari chuqur o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urta amaliyotining bugungi holati tahlil qilinib, ilg'or xorijiy tajriba bilan solishtirildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qayta sug'urta sug'urta kompaniyalari faoliyatida risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, xizmatlar doirasini kengaytirish hamda yirik to'lovlar xavfini kamaytirish orqali ularning samaradorligini oshiradi. Jumladan, APEX Insurance va Uzbekinvest kabi kompaniyalar faoliyatida tashqi qayta sug'urtadan foydalanish ularning moliyaviy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Aksincha, qayta sug'urta strategiyasi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan kompaniyalarda risklar yuqoriligicha qolmoqda.

Tadqiqot davomida Shveysariya (Swiss Re) va Germaniya (Munich Re) kompaniyalari misolida

ilg'or xalqaro tajriba ham o'rganildi. Bu kompaniyalarda qayta sug'urta nafaqat xavfni taqsimlash vositasi, balki investitsiya salohiyatini kengaytiruvchi va sug'urta mahsulotlarini innovatsion tarzda rivojlantiruvchi strategik vosita sifatida ham xizmat qilmoqda.

Natijada quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Sug'urta kompaniyalari risk turlarini inobatga olgan holda qayta sug'urta strategiyasini shakllantirishi lozim.
2. Qayta sug'urta shartnomalarini diversifikatsiya qilish – xususan, kvotali, ortiqcha zararli va fakultativ shartnomalardan kompleks foydalanish zarur.
3. Milliy qayta sug'urta kompaniyasining rolini kuchaytirish orqali xorijiy qayta sug'urtalovchilarga bog'liqlikni kamaytirish mumkin.
4. Qayta sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza xalqaro standartlar asosida takomillashtirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, qayta sug'urta – bu nafaqat xavfni taqsimlash vositasi, balki sug'urta kompaniyalari faoliyatining barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlovchi strategik moliyaviy mexanizmdir. O'zbekiston sug'urta bozori sharoitida qayta sug'urtani rivojlantirish kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash va ishonchli sug'urta xizmatlari ko'rsatishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.